

O'ZBEKISTON — BELARUS: O'ZARO ISHONCH VA DO'STLIKKA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR AMALIY MAZMUN BILAN BOYIMOQDA

“Ko'ksaroy” qarorgohida 8-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoni tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.



O'zbekiston va Belarus bayroqlari bilan bezatilgan maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus yetakchisini samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi. Ikki mamlakat madhiyalari yangradi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko tor doirada hamda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

Davlatimiz rahbari uchrashuvni ochar ekan, keyingi yillarda O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar sifat jihatdan yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidladi.

Belarus Prezidentining ushbu tashrifiga tayyorgarlik doirasida qator tadbirlar, shu jumladan, Hukumatlararo komissiya

yig'ilishi, hududlar, rektorlar, tibbiyot xodimlari forumlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Hukumat rahbarlari, parlamentlar, vazirlik va hududlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Tomonlar xalqaro tuzilmalar, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT doirasidagi siyosiy muloqot va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga ahdlashib oldilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur'ati mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yil yakunlarga ko'ra tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi.

Hukumatlar oldiga ushbu ko'rsatkichni yaqin yillarda 1 milliard dollardan ziyodga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Shu maqsadda qo'shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish, eksport-import yetkazib berishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va mahsulotlarni sertifikatlashtirish elektron tizimini joriy qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Bundan tashqari, tomonlar yuk tashish uchun qulay sharoit yaratish, xalqaro

avtomobilda tashuvchilarni tayyorlash, Janubiy Osiyoning katta bozorlariga eltuvchi multimodal koridorlardan samarali foydalanishga kelishib oldilar.

Kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Keyingi yillarda qo'shma korxonalar soni 4 barobar ko'paydi.

Muzokaralarda davlat rahbarlari kooperatsiyaning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdilar. Bular — qishloq xo'jaligi, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik, kommunikatsiyalar va boshqalar. Barcha yo'nalishlar bo'yicha alohida ishchi guruhlarini shakllantirishga kelishib olindi.

Yetakchilar hududlararo almashinuv faollashganini olqishladilar. Kuni kecha o'tgan O'zbekiston va Belarus hududlari ikkinchi forumining samarali natijalari alohida qayd etildi: uning yakunlari bo'yicha qiymati 1 milliard dollardan ziyod shartnoma va bitimlar imzolangan.

Tomonlar faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga kelishib oldilar. Oliy va professional ta'lim, sog'liqni

saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida sheriklikni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi.

Yig'ilishda rasmiy delegatsiyalar a'zolarining hisobotlari, muzokaralar kun tartibidagi masalalar yuzasidan aniq takliflari tinglandi.

Uchrashuvlar yakunida qabul qilingan qarorlar va imzolangan kelishuvlarni amalga oshirishga doir qo'shma “Yo'l xaritasi”ni tayyorlash va qabul qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Oliy darajadagi muzokaralardan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Qo'shma bayonot qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida qator muhim ikki tomonlama hujjat va bitimlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Shu jumladan:

- 2024-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejas;
- Mahsulotlarni sertifikatlashtirish elektron tizimlarini qo'llash to'g'risida bitim;
- Raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohalarida hamkorlik to'g'risida bitim;
- Ilm-fan va ishlab chiqarishda hamkorlik to'g'risida bitim;
- Toshkent va Minsk shaharlari o'rtasida birodarlik munosabatlarini o'rnatish va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bitim;
- Energetika sohasida hamkorlik to'g'risida bayonoma;
- Intellektual mulk sohasida hamkorlik to'g'risida bayonoma;
- 2024-2025-yillarda ta'lim sohasida hamkorlik dasturi;
- 2024-2025-yillarda madaniyat va san'at sohasida hamkorlik dasturi;
- 2024-2025-yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida hamkorlik dasturi;
- 2024-2025-yillarda ta'lim sohasida hamkorlik bo'yicha “Yo'l xaritasi”;
- 2024 — 2026-yillarda agrosanoat majmuida hamkorlik bo'yicha “Yo'l xaritasi”;
- O'simliklar karantini sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar rejas;
- 2024-2025-yillarda turizm sohasida hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar rejas.

Bundan tashqari, tashrif doirasida

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi hududlari delegatsiyalarining o'zaro tashriflari reja-jadvali imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko muzokaralardan so'ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Tashrif arafasida o'tkazilgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi, Hududlararo forum va Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishi natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi. Bungacha yetakchi oliygohlar rektorlari va tibbiyot muassasalari rahbarlarining uchrashuvlari bo'lib o'tgan edi.

O'zbekiston Prezidenti jurnalistlar e'tiborini keyingi yillarda O'zbekiston — Belarus hamkorligida ro'y bergan sifati o'zgarishlarga qaratdi. Barcha darajalardagi muloqotlar faollashgani, tovar ayirboshlash hajmi, kooperatsiya loyihalari soni oshgani, madaniy-gumanitar almashinuv va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar qayta tiklangani qayd etildi.

Yetakchilar muzokaralar atroficha bo'lgani, O'zbekiston — Belarus munosabatlarining keng doirasi batafsil muhokama qilingani, ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari belgilab olinganini ma'lum qildilar.

Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT doirasidagi muloqotni mustahkamlashga tomonlarning intilishi qat'iy ekan ta'kidlandi.

Tovar ayirboshlashni ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qo'shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish va savdoni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilishga kelishib olindi.

Sanoat kooperatsiyasining ustuvor sohalari belgilab olindi.

Hududlararo aloqalar salohiyati va imkoniyatlarini samarali ishga solishga alohida e'tibor qaratildi.

Madaniyat va san'at, oliy va professional ta'lim, turizm, yoshlar va sport sohalaridagi faol almashinuvlar davom ettirildi. Sog'liqni saqlash borasidagi hamkorlikning aniq yo'nalishlari belgilab olindi.

Tomonlar navbatdagi tibbiyot, ta'lim va turizm forumlarini tashkil etishga kelishib oldilar.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilishi, ko'p qirrali sheriklikni aniq

amaliy mazmun bilan boyitishiga ishonch bildirildi.

“Ko'ksaroy” qarorgohida O'zbekiston — Belarus sammiti yakunlangach, birgalikda daraxt ekish marosimi bo'lib o'tdi.

Faxriy mehmonlar xiyobonida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga intilish ramzi sifatida daraxt ekdilar.

So'ng Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Toshkent shahridagi Texnoparkka tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon e'tiboriga Texnopark korxonalarida ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika, elektron hisoblagichlar, lift va eskalatorlar, nasoslar, sanoat qozonxonalari, sovitish tizimlari kabi keng turdagi yuqori texnologik mahsulotlar taqdim etildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan sanoat majmuasida umumiy qiymati 365 million dollarlik 17 ta ishlab chiqarish quvvati joylashtirilgan. Joriy yilda bu yerda logistika markazi ish boshlaydi.

Mahsulotlar xorijiy brendlar ostida va ular nazoratida ishlab chiqarilmoqda, ichki va xorijiy bozorlarda ularga talab yuqori. Tovarlar dunyoning 10 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda.

Prezidentlar yetakchi korxonalar kooperatsiyasini, tajriba almashish va texnologiyalar transferini kengaytirish zarurligini ta'kidladilar.

Shu kuni Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamrohligida “Yangi O'zbekiston” bog'iga bordi. Oliy martabali mehmon muhtasham badiiy obida — Mustaqillik monumenti o'yiga gul qo'ydi.

Aleksandr Lukashenko ushbu muazzam bog'ning bunyod etilish tarixi bilan tanishdi. Mustaqillik monumentida aks ettirilgan buyuk allomalar, qahramon sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimiz haqida so'zlab berildi.

Delegatsiya a'zolari “Yangi O'zbekiston” majmuasining g'oyaviy va me'moriy yechimlariga e'tibor qaratdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

IQTISODIYOT SOHALARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Jahon bozorida raqobatning tobora keskinlashuvi sharoitida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni ko'tarish orqali kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyot va moliya sohasidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish,

ularda samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, o'quv jarayonlariga eng so'nggi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy faoliyatni jahon standartlari asosida tashkil etish, ularning xalqaro reytinglardagi o'rini yanada oshirish, ilg'or xorijiy tajribaga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni keng jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti hamda moliya tizimlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Iqtisodiyot va moliya sohalari uchun yuqori malakali hamda xalqaro talabarga mos mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv hamda ilmiy jarayonlarni xalqaro standartlarga asoslanib innovatsion shakl va usullar asosida tashkil etish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida:

(Davomi 2-betda).



“MUALLIM QULLUG'IG'A XAT BERURMEN...”

Mamlakatimizda she'riyat mulkining mangu sultoni, buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 583-yilligi keng nishonlanmoqda.

Prezidentimiz ulug' bobomiz Alisher Navoiy hayoti va ijodini keng o'rganish va targ'ib qilish, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga chuqur singdirish borasida ibratli fikrlarni hamisha qayta-qayta ta'kidlaydi.

Hazrat Navoiy ilgari surgan jaholatga qarshi qurol-yarog' emas, faqatgina bilim va ma'rifat bilan kurashish, ellar va dillar aro mustahkam ko'priklarni o'rnatishdek umumbashariy g'oyalar turli yovuzliklar xurujiga kelgan bugungi sertahlikka va xatarnok dunyoda g'oyat muhimdir.

Talqin

Barchamizga yaxshi ma'lumki, Navoiy bobomiz murg'ak chog'laridanoq bilim olishga intilgan, Fariduddin Attor hazratlarining “Mantiq ut-tayr”dek buyuk asarini yod olgan zukko va benazir kitobxon bo'lgan.

Chun kichik yoshning manga bo'ldi nasib
Nazm adosida xayoloti g'arib.
She'r har sinfinki qildim ibtido,
Turk alfozi bila topti ado...

...Menki turk alfozig'a aylab shuru',
Nazm topti tab'u' kilkimdin vuqu'.
Chun sahobi tab'im o'ldi durfishon,
Nazmima erdi Navoiydin nishon.
Dahr bog'ida bo'lub komim ravo,
Komronlar topti nazmimdin navo...
Davlatimiz rahbari buyuk shoir Alisher Navoiy asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va jahon kitobxonlariga yaqindan tanishtirish bo'yicha alohida ko'rsatmalar berib, ayni paytda ulug' bobomizning asarlari o'z zamonasidayoq jahon she'riyatining piri komillaridan mavlono

Abdurahmon Jomiy tomonidan yuksak e'tirof etilgan haqida shunday yozgan: “...**Abdurahmon Jomiy ham Alisher Navoiy ijodini yuksak qadrlagan tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum.** “**Xiradnomai Iskandariy**” dostonida Navoiyning iste'dodi va mahoratiga yuksak baho berib, “**U Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy panjasiga munosib panja ura oldi, hatto ulardan ham o'zib ketdi. Yaxshiyamki, u o'z asarlarini turkiy tilda yaratdi, agar forsiyda qalam tebratganida bormi, boshqalarga bu maydonda javlon urish uchun majol qolmas edi**”, deya madh etadi. Bu e'tirof mavlono Jomiy Navoiyning turkiyda yozgan asarlarini ham muntazam o'qib, unga o'z munosabatini bildirib borganidan dalolat beradi”.

Bokuda ozarbayjonlik navoiyshunos olimlarning Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan bir qancha kitoblari nashr qilindi. Masalan, Olmos Ulviyning ozar tilidagi “Alisher Navoiyning asri va nasri” kitobi chop etildi. Ozarbayjonlik tarjimon Romiz Asqar

tomonidan Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” asarlari ozarbayjon tiliga g'irildi.

Adib va tarjimasunos olim Qalidibek Seydanoynovning “Navoiy va qozoq adabiyoti” kitobi nashr etildi. Buyuk shoimning “Mahbub ul-qulub” asari O'rozboy Abdurahmonov tomonidan qoraqalpoq tiliga, Nesipbek Aytuli tomonidan qozoq tiliga tarjima qilindi.

Navoiy bobo “Lison ut-tayr”da yozadi: *Kim bu daftarg'a berib tavfiq Haq, Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.*

Prezidentimiz tashabbusi bilan o'zbek adabiyotidan qilingan eng yaxshi tarjima asarlar uchun Navoiy bobomizning munosib izdoshi Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotning tashkil etilayotgani bu sohada yangi O'zbekistonda muhim islohotlardan biri bo'ladi.

Ogahiy mukofoti Navoiy nomidagi xalqaro mukofotga uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushgani barchamizga faxr va g'urur bag'ishlaydi.



Senat Kengashida

NAVBATDAGI YALPI MAJLISNI CHAQIRISH YUZASIDAN QAROR QABUL QILINDI

Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda Senatning elliginchi yalpi majlisini 2024-yil 9-fevral kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ta'kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

“Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida”gi hamda “O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisi ochilishi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining elliginchi yalpi majlisi 2024-yil 9-fevral kuni soat 10.00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlis videokonferensaloqa tarzida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

IQTISODIYOT SOHALARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasining **Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini** unga Toshkent moliya instituti va Fiskal institutni (keyingi o'rinlarda — Universitet) qo'shib olish yo'li bilan qayta tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Quyidagilar Universitetning **asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari** etib belgilansin:

Iqtisodiyot, moliya va soliq sohalari bo'yicha dunyodagi so'nggi tendensiyalar, moliyaviy texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajriba va real iqtisodiyot tadbirlarini hisobga olgan holda oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

qo'uv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim va tadqiqot yuqorig'ini ta'minlash orqali **iqtisodiyot tarmoqlari uchun ilg'or innovatsion ishlanmalar yaratish**, talabalarda tizimli tahlil qilish, **kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish**;

zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar va simulyatsion markazlar tashkil etish orqali **"ta'lim — fan — innovatsiya — raqamlashtirish"** ekotizimini va sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion **tadqiqotlar transferini samarali yo'lga qo'yish**;

iqtisodiyot, moliya va soliq sohalarini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha **ilmiy loyihalarni amalga oshirish**, ularning natijalarini joriy etish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish;

jahon ta'lim va ilmiy makonda Universitetning nufuzini oshirish, yetakchi xorijiy universitetlar bilan akademik va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning **xorijiy ilmiy-amaliy stajirovkasini** tizimli yo'lga qo'yish.

3. Belgilansinki:

a) Universitet iqtisodiyot, moliya va soliq sohalari uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda metodik ta'minot bo'yicha **yetakchi oliy ta'lim muassasasi** hisoblanadi;

b) Toshkent moliya instituti va Fiskal institutda tahsil olayotgan barcha talabalar o'qishini Universitetda davom ettiradi hamda 2023/2024 o'quv yilidan boshlab

bitiruvchi kurs talabalariga belgilangan tartibda **Universitet diplomi beriladi**;

v) Universitetda **2024/2025 o'quv yilidan boshlab**: ta'lim jarayoni davlat tili, ingliz tili va boshqa xorijiy tillarda olib boriladi;

bakalavriat va magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan iqtidorli talabalar uchun alohida **xorijiy tillarda o'qitiladigan** guruhlar tashkil etiladi;

ta'lim dasturlari xalqaro tan olingan reytinglarda **birinchi 300 talik ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturi** asosida bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi;

ta'lim jarayoniga yetakchi professor-o'qituvchilar hamda tegishli sohalarda kamida 5 yillik **amaliy tajribaga ega bo'lgan iqtisodiyot, moliya va soliq tizimlarida ishlagan mutaxassislar jalb etiladi**;

iqtisodiyot, moliya va soliq sohasi xodimlarining **malakasini oshirish tizimi** yo'lga qo'yiladi;

g) Universitetga talabalarni **o'qishga qabul qilish 2024/2025 o'quv yilidan boshlanadi**. Bunda davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilish davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari doirasida belgilanadi;

d) Universitet:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga idoraviy jihatdan bo'sunadi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi Universitet faoliyatini samarali tashkil etish, malaka talabalarini ishlab chiqish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalariga amaliyot bazalarida sharoitlar yaratishda **kadrlar buyurtmachisi sifatida ko'maklashadi**;

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blanklarga, mustaqil balansga hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Toshkent moliya instituti va Fiskal institutning **huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqi** vorisi hisoblanadi.

4. Quyidagilar:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti **kuzatuv kengashining tarkibi** 1-ilovaga muvofiq;

2024 — 2027-yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida **kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo'lga qo'yish, ilmiy salohiyatni oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo'yicha "Yo'l xaritasi"** 2-ilovaga muvofiq;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga **operativ**

boshqaruv huquqi asosida bepul beriladigan obyektlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Kuzatuv kengashi (Qo'chqorov):

a) **2024-yil 1-aprelga qadar** Universitetning boshqaruv kadrlari lavozimlariga yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish chorasini ko'rsin;

b) **2024/2025 o'quv yili boshlanguniga qadar** tajribaga ega bo'lgan loyihalashtirish tashkilotini jalb qilsin va Universitetning mavjud hududlari va bino-inshootlari negizida **zamonaviy kampusni bunyod etish bo'yicha master rejani ishlab chiqsin** hamda unda quyidagilarni nazarda tutsin:

Universitetning Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Olmazor ko'chasi, 183-uy manzilidagi hududida xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv auditoriyalari, kovorking markazlari, IT laboratoriya, biznes inkubator va anjumanlar zalini o'z ichiga olgan multifunksional ko'p qavatli binoni barpo etish;

Universitet kampusi va ulardagi bino-inshootlarni yuqori tezlikdagi internet bilan yagona tarmoqqa bog'lash, o'quv va ilmiy tadqiqot jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

talabalar uchun qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida ma'nan va jismonan eskirgan binolar o'rinda yangi talabalar turarjoyi, zamonaviy sport zallari, oshxonalar va boshqa bino-inshootlarni qurish.

6. Universitetda mablag'lari homiylik xayriyalari hisobidan shakllantiriladigan **Universitetni rivojlantirish jamg'armasi** tashkil etilsin.

Belgilansinki, Universitetga tushgan to'lov-kontrakt mablag'larining saqlash va joriy xarajatlardan ortgan qismi Universitetni rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi hamda ta'lim jarayonini yaxshilash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq ishlatiladi.

7. Kuzatuv kengashi (Qo'chqorov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Universitet faoliyatini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida ikki oy muddatda xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Universitet huzurida **Transformatsiya markazini** tashkil etsin.

Transformatsiya markazi quyidagilar uchun mas'ul etib belgilansin:

Universitetni 2030-yilga qadar xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida **birinchi 1 000 talik ro'yxatga** kiritish, shuningdek, Universitet ta'lim dasturlari **xalqaro akkreditatsiyadan**

o'tkazilishini ta'minlash yuzasidan strategiyani ishlab chiqish;

xorijiy tajribaga muvofiq bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini maqbullashtirish hamda Universitetning ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlariga muvofiqlashtirish;

2024-2025-yillarda xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kamida **200 nafar yetakchi professor-o'qituvchilarning stajirovkasini** tashkil etish;

Universitetning ta'lim dasturlarini xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturlari asosida ishlab chiqish.

8. Belgilansinki, Universitet faoliyatini moliyalashtirish:

Davlat budjeti mablag'lari, to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar, xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar, homiylik xayriyalari va grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan hisobidan amalga oshiriladi;

2024-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2025-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

9. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A.Qo'chqorov hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A.Sharipov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.K.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**Toshkent shahri,
2024-yil 7-fevral**Sh. MIRZIYOEV**NAVBATDAGI
YALPI MAJLISNI
CHAQIRISH
YUZASIDAN
QAROR QABUL
QILINDI

Shuningdek, navbatdagi yalpi majlis kun tartibidan "O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmeni) to'g'risida"gi hamda "Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunlar ham o'rin olgan.

Shu bilan birga, senatorlar 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2024-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash, Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risidagi, Toshkent viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holati haqidagi masalalarni ham ko'rib chiqadi.

"Xalq so'zi".

JADAL ISLOHOTLAR VA YANGILANISHLAR
XALQIMIZ FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN

Bugun ortda qolgan yil quvonchli va unutilmas voqealarga boy bo'lganini yana bir bor shukronalik bilan eslar ekanmiz, mamlakatimiz tenglar ichra teng bo'lib, jadal rivojlanish yo'lini bosib o'tgani yanada oydinlashadi.

Xalqimiz farovonligini ta'minlash va iqtisodiyotimizni yuksaltirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Bu jarayonda chet mamlakatlar tajribasi ham o'rganilib, 2030-yilga qadar O'zbekistonning "o'rtadan yuqori daromadli" mamlakatlar guruhiga kirishi uchun muhim islohotlar amalga oshirilayotir.

Nuqtai nazar

Hayotimizda katta
ahamiyatga ega yil

Shu o'rinda chet ellik ekspertning O'zbekistonda Markaziy Osiyoning yangi "kuchli yo'lbarisi"ga, mintaqamiz barqaror rivojning drayveriga aylanayotganini e'tirof etganligini eslab o'tish maqsadga muvofiq. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxisizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rib kelinayotgani shunday deyishga to'la asos bo'lgan, desak, mubolag'a emas. Zero, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan qiyinchiliklarga qaramay O'zbekistonda 2017 — 2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini erkinlashtirishga yo'naltirilgan islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning o'rtacha yillik o'sishi 5,5 foizdan kam bo'lmadi.

Yangi O'zbekistonning tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularga turli imkoniyat hamda imtiyozlar berish, samarali faoliyati uchun zarur kafolatlarni bilan ta'minlash borasidagi ishlari ham mutlaqo yangicha. Xorijiy investor va hamkorlarimiz uzoq kutgan yengillik va imkoniyatlar iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topmoqda. Valyuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha to'siqlar olib tashlangani, 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bo'xona bojlari bekor qilinishi natijasida tashqi savdo aylanmasi ikki karra oshdi.

Shu bilan birga, soliq quyi qariyb 2 barobar kamaygani, soliq ma'murchiligi soddalashtirgani, O'zbekistonda mintaqamizdagi eng jozibador fiskal tizim shakllangan xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Islohotlarga ishonch ortgani tufayli yillik xorijiy samoyalar hajmi 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi. Umuman, mamlakatimizda qulay biznes muhiti yaratilgani natijasida tadbirkorlar soni 4 barobar oshdi.

Ta'kidlash joizki, investorlar qayerda bo'lmasin Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida tashkil etilgan "yagona darcha" orqali 14 ta hudud, 208 ta tuman va shaharda hamda O'zbekistonning xorijdagi barcha diplomatik vakolabxonalarida ularga zarur ko'mak va xizmatlar ko'rsatilyotir.

Umuman, O'zbekistonimizda tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarini

yanada erkinlashtirish siyosati jadal davom ettirilmoqda. Xususan, dunyodagi ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun katta qadamlar tashlanmoqda. Byurokratiyani qisqartirish va korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilish bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning diqqat markazida bo'ladi.

Yana bir muhim masala. O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'z oldiga katta marralarni qo'ygan. Ulariga erishish uchun tadbirkorlarga yangi-yangi imkoniyat va sharoitlar yaratiladi.

Mamlakatimizda kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga pasayib, 1 million fuqaro kambag'allikdan chiqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Bunday natijalarga erishishimizda aholini zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularga munosib ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli va uzoqni ko'zlagan siyosat hal qiluvchi omil bo'lmoqda.

Infratuzilma, tibbiyot, ta'lim, transport, ekologiya kabi davlat ixtiyoriga sohalarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, "yashil" iqtisodiyot, ayniqsa, "yashil" energiya sohalarini jadal rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor ham o'z mevalarini bera boshladi.

“Yashil” energiya sohalari
yanada rivojlantiriladi

Kezi kelganda aytish joizki, 2030-yilga qadar elektr quvvati ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini 40 foizga yetkazish reja qilingan. Bashariyat duch kelayotgan iqlim o'zgarishi, Orol dengizi halokati va boshqa ekologik inqirozlar oqibatlarini yengib o'tish, "yashil" iqtisodiyot va "yashil" taraqqiyot, ayniqsa, "yashil" energiya sohalarini jadal rivojlantirish, "yashil" tiklanish va uglerod neytralligini ta'minlash, ichimlik suvi, yo'l-transport infratuzilmasini takomillashtirish kabi masalalarni samarali hal etish bilan bevosita bog'liq.

Hozir O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya sohasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 600 mln. yevro mablag'i ishtirokida yirik loyihalar boshlangan. Qolaversa, "ACWA Power", "Masdar", "Total Eren" kabi jahonning nufuzli kompaniyalari mamlakatimizda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirmoqda. Shu yilning o'zida 2 ming megavattidan ziyod, keyingi yilda esa 8 ming megavattli quvvatlar ishga tushiriladi.

Bir paytning o'zida "yashil" taraqqiyotga erishish uchun "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uni rivojlantirishni zamonning o'zi talab



etmoqda. Shu maqsadda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatt-ga, ularning ulushini hozirgi 14 foizdan 40 foizga yetkazish, 2024-yildan boshlab sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini yaratish, avtobuslarni to'liq ekologik toza elektr yoki gaz yoqilg'isiga o'tkazish, barcha yangi uy va asbob-uskunalariga energiya tejash bo'yicha talablarni joriy etish maqsad qilinganki, natijada iqtisodiyotda energiya samaradorligi 2 karra oshib, 2030-yilga borib 50 mlrd. kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi.

Yangi stansiyalar ishga tushishi bilan 10 ming kilometr magistrat va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo etiladi. O'tgan yillarda O'zbekistonda issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xorijiy investorlar bilan umumiy qiymati 16 mlrd. 62 mln. dollarga teng bo'lgan 34 ta bitim imzolandi. Bu — O'zbekistonda investorlar tomonidan 34 ta zamonaviy elektr stansiya quriladi degani.

Ahamiyatlisi, O'zbekiston tarixida birinchi marta aholi xonadonida o'tatilgan quyosh panellari yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat tomonidan sotib olish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, elektr quvvatini iste'molchilarga sifati va barqaror yetkazinish maqsadida so'nggi besh yilda qariyb 46 ming kilometr uzatish tarmoqlari va 14 mingta transformator punkti yangilandi. Buning natijasida esa 7,5 mingdan ortiq mahallalarning elektr ta'minoti yaxshilandi.

IT xizmatlar eksporti hajmi
o'rtacha
2 barobar ortdi

Yangi O'zbekiston — raqamli jamiyat qurish, barcha sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiyalaridan umumiy foydalanishga intilayotgan mamlakat. Raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoq va sohada, avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

E'tiborlisi shundaki, har yili IT xizmatlar eksporti hajmi o'rtacha 2 barobar ortyapti. "Elektron hukumat" sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qator xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholalanmoqda. Xususan, o'tgan yili O'zbekiston

BTning "Elektron hukumat" reytingida 18 pog'ona ko'tarilib "tez rivojlanayotgan davlatlar" qatoriga kirdi, Jahon bankingning "Davlat texnologiyalari yetukligi" reytingida esa 37 pog'onaga ko'tarilib, dunyoda 43-o'rinni egalladi. Markaziy Osiyoda hamkorlikni rivojlantirish yangi O'zbekiston tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mintaqa davlatlari rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi va izchil sa'y-harakati natijasida bugun Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnichilik va sheriklikning yorqin namunasiga aylangan ayni haqiqat. Jumladan, qo'shnilarimiz bilan iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish maqsadida qo'shma investitsiya fondlari tashkil etiladi, sanoat, energetika, transport va suv xo'jaligida bir qator yirik loyihalar boshlandi.

Prezidentimiz ilgari surgan, pirovard maqsadi har qaysi shaxs, inson, har bir oilaning erkin, farovon va tinch hayot haqidagi ezgu niyat va orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish bo'lgan hamda jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan davlat — yangi O'zbekistonn qurishga qaratilgan shiddatli va tub islohotlar bundan keyin ham davom ettiriladi. Zero, so'nggi olti yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotini hajmi 52 mlrd. dollardan 80 mlrd. dollarga oshdi va bu jadal rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir.

E'tiborlisi, mavjud salohiyatdan kelib chiqib yanada yuksak marralar belgilanmoqda. Bunda 2030-yilga borib YAIM hajmini 2 barobar oshirib, 160 mlrd. dollarga yetkazish; aholi jon boshiga YAIM hajmini esa hozirgi 2,2 ming dollardan 4 ming dollarga oshirish; natijada O'zbekiston "daromadi o'rta"dan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirishini ta'minlashdek bosh maqsadlar ko'zlangan.

Bu qanday amalga oshiriladi? Avvalo, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish strategiyasi amalga oshirildi, 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlanib hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Mamlakatimiz o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish va bu orqali mehnat umumdorligini 2 barobar oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni O'zbekiston iqtisodiyoti mavjud resurslardan oqilona foydalanish evaziga innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantiriladi.

Raqamli transformatsiya
— davr talabi

Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

2023-yilning o'zida ta'lim, bank, moliya, bo'xona, qishloq xo'jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarini raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalar tashkil etilib, sohaga 475 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Yil yakuni bilan sohada xizmatlar hajmi 10 trln. so'mdan, eksport esa 300 mln. dollardan oshgani e'tiborga molik. Bunda hududlarda 20 mingdan ortiq yoshlar mustaqil shug'ullanib, xalqaro onlayn platformalar orqali yaratgan mahsulotini chetga sotgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi O'zbekiston — investitsiyaviy jozibador davlat. O'zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi uch karra ko'payib, o'tgan yilning o'zida 10 mlrd. dollardan oshdi. Yevropaning "Global darvoza" strategiyasi doirasida transport-logistika infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan keng investitsiyaviy va texnologik sheriklik kun sayin samarali natija bermoqda.

Masalan, birgina Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi "GSP+" tartibi tufayli 2023-yil boshidan buyon qariyb 70 foizga o'sdi. Bularning barchasi yurtmizda yuzaga kelayotgan qulay investitsiyaviy muhit xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganidan darak beradi. 2030-yilgacha 250 mlrd. dollar miqdorida investitsiyalar, shu jumladan, 110 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar hisobiga 40 mlrd. dollar davlat-xususiy sheriklik doirasida jalb etish belgilangan.

Iqtisodiyotimizning izchil
taraqqiyoti yo'lida yangi
qadamlar

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining eng "injig" sohalaridan biri. Chunki uning faoliyati iqlim, ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining muhim sharti sanaladi.

Soha sanoatning "noni" — xomashyo manbai ham. Qishloq xo'jaligida mineral xomashyodan farqli o'laroq tiklanadigan resurslar ishlab chiqariladi. Bu jihatdan ham uning ahamiyati katta. Qishloq, o'rmon va baliqchilik mamlakat yalpi ichki mahsulotining

Umuman, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shiddatli va davomli islohotlar xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon yangi O'zbekistonn barpo etilishning garovidir. Mamlakatimiz bu borada yetarli kuch va salohiyatga ega. Bugungi qilinayotgan sa'y-harakatlar, aniq maqsadli loyihalar bunga sharoit va imkoniyat yaratadi.

Dilafro'z NOSIROV**JAYEVA,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
Fundamental iqtisodiyot kafedrasini professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.



Munosabat

HAR BIR INSON O'Z
SALOHIYATINI RO'YOBGA
CHIQRISHI UCHUN MUNOSIB
SHAROIT YARATILADI

Sir emaski, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatida inson huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda har bir yurtdoshimiz uchun munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishdek ulug'vor maqsadlar mujassam. "Ummidan, Vatanimiz ertasini belgilab beradigan yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash doimiy e'tibor markazida bo'lib kelayotir.

Bu haqda bejiz so'z ochmadik. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta'kidlaganidek: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat".

Shu kunlarda jamoatchilik muhokamasiga chiqarilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida belgilangan yo'nalishlar, maqsad va vazifalar ham ana shu ezu sa'y-harakatlar davomiyligini ta'minlaydi.

Avvalo, davlat 5 ta ustuvor yo'nalish, ko'plab maqsadni o'z ichiga olgan bo'lib, ularni amalga oshirishga qaratilgan aniq vazifalar va amaliy chora-tadbirlar belgilab qo'yilganligini aytish joiz.

Ularining hammasi xususida birgina maqolada to'xtalish imkonsiz, albatta. Shu bois "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalish haqida kengroq so'z yuritmoqchimiz.

Mazkur yo'nalishda 44 ta maqsadni amalga oshirish uchun 112 ta vazifa va amaliy chora-tadbir belgilangan.

Xususan, maktabgacha ta'lim qamrovini 76 foizga yetkazish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter guruhlarini tashkil etish, pedagoglarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli "TOP — 1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish, muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarini tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan dolzarb chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Qolaversa, aholi orasida

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilmoqda.

HUKUMAT VAKOLATLARI
KENGAYTIRILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasida bir qator yangiliklar nazarda tutilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining maqomi, shakllantirish tartibi, asosiy vakolatlari to'g'risidagi bir qator moddalarga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilyapti. Shu bilan birga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqomi, ularni tashkil

qilish hamda tugatishning aniq va yagona tartibi belgilanyapti.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib Hukumatning iqtisodiyot, budget, moliya va soliq, ijtimoiy soha, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi vakolatlari kengaytirilayotir.

Qonun loyihasi ayni vaqtda mas'ul qo'mita tomonidan siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlari kun tartibiga muhokamadan o'tkazish uchun kiritishga tayyorlanmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga "Bolalarni zo'rvonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritildi.

BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN
HIMOYA QILISH BO'YICHA YANGI TIZIM

himoya qilish bo'yicha ularga himoya orderi berish tizimi joriy qilinmoqda.

Loyihani ishlab chiqishda Germaniya, Fransiya, Daniya, Singapur, Vengriya, Bolgariya, Albaniya, Gruziya kabi davlatlarning tajribasi tahlil qilingan.

Ayni vaqtda qonun loyihasi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Parlament axborot markazi.

AVIA VA TEMIR YO'L TRANSPORTLARIDA
XIZMAT KO'RSATISH HOLATI QANDAY?

O'tgan yili mamlakatimizdagi 11 ta xalqaro aeroport va uchish-qo'nish maydonchalari orqali 85 702 ta aviaqatnov amalga oshirilib, 10 million 409 ming yo'lovchiga, 70,870 ming tonna yuk va pochtaga xizmat ko'rsatilgan. Aviakompaniyalar soni 9 tadan 15 taga yetkazilgan. Shuningdek, milliy aviaparkka xorijdan 28 ta havo kemasi olib kelilib, ularning umumiy soni 75 taga yetkazilgan.

Eshituv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan eshituvda bu haqda batafsil ma'lumot berildi.

U n d a T r a n s p o r t vazirligining "Avia va temir yo'l transportlarida fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'larida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Mamlakatimizda avia va temir yo'l transporti sohaslarini isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, tizimga xususiy sektorni keng jalb qilish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining tegishli Farmon va qarorlari sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilib, doimiy takomillashtirilib borilayotir.

Eshituvda ta'kidlanganidek, 2023-yilda O'zbekiston aviatashuvlar bozorida yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha faoliyat yuritayotgan xorijiy aviakompaniyalar soni 40 taga yetkazilgan. Parvozlari geografiasini kengaytirish maqsadida rezident va xorijiy aviakompaniyalar tomonidan 20 ta yangi xalqaro yo'nalishda

qatnovlar yo'lga qo'yilgan.

Tadbirida, shuningdek, temir yo'l transportida fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham axborot berildi.

Ma'lum qilinishicha, o'tgan yili temir yo'l transportida mahalliy yo'lovchilarni tashish



Toshkent yo'nalishida haftasiga 10 ta, Toshkent — Samarqand — Toshkent yo'nalishida har kuni 1 ta, Toshkent — Shahrisabz — Toshkent yo'nalishida haftasiga 1 ta

qancha ijobiy ishlar amalga oshirilganiga qaramay avia va temir yo'l transporti uchun chipta xarid qilish jarayonida inson omili hanuz yuqori ekanligi, korruptsiya va tanish-bilishchilik holatlarining borligi qayd etildi. Shu bilan birga, vagona birlamchi tibbiy xizmat ko'rsata oluvchi mutaxassislar yo'qligi, shahar atrofi hududlariga harakatlanuvchi zamonaviy tezyurur elektropoyezdlari qatnovi hanuzgacha yetarli darajada tashkil etilmagani tanqid qilindi.

Shuningdek, mamlakatga lizing asosida olib kelinayotgan havo kemalari uchun aniq mezonning belgilanmagani, charter va muntazam parvozlarni amalga oshirish hamda xorijiy aviatashuvchilarni O'zbekiston aviatashuvlar bozoriga jalb etish bo'yicha mezonlarning mukammal emasligi, fuqaro aviatsiyasi sohasini raqamlashtirish va o'zaro integratsiyalashtirish mezonlarning belgilanmagani e'tirozga sabab bo'ldi.

Muhokama davomida deputatlar sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha mutasaddilarga bir qator takliflarni berdi.

Eshituvda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".



Bekmirza ESHMIRZAYEV,
"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi:
— Mamlakatimizda avia va temir yo'l transportlariga bo'lgan talab kundan-kunga oshib borayotganini qayd etgan holda, avia hamda temir yo'l tizimida tashuvchilarning qonunchilikda majburiyatlari va javobgarligini aniq belgilash, sohaga xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish muhim.

yo'nalishlari 6 taga oshirilib, 29 taga yetkazilgan. Mazkur yo'nalishlarda 44 ta yo'lovchi poyezdi harakatlangan bo'lib, shulardan 6 tasi yuqori tezlikda harakatlanuvchi, 6 tasi tezyurur, 16 tasi yo'lovchi poyezdlari hamda 18 tasi shahar atrofida harakatlanuvchi elektropoyezdlardir.

Toshkent — Buxoro — Toshkent yo'nalishida har kuni 3 ta, Toshkent — Qarshi —

yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" elektropoyezdlari tashuvlarni amalga oshirmoqda. Ushbu elektropoyezdning yo'lovchi sig'imi 286 o'rinni bo'lib, kuniga o'rtacha 2,9 mingtadan 3,5 mingtagacha yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilyapti.

Eshituvda sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga, ayrim kamchiliklar mavjudligi qayd etildi. Xususan, raqamlashtirish bo'yicha bir

Negaki, mamlakatimizdagi tartib-talabga ko'ra, oliygoh o'qituvchisi bir vaqtning o'zida dars berishi va ilmiy izlanishlar olib borishi mumkin.

Jahon standartlari asosidagi dunyo tartib-qoidalariga bo'yicha esa universitetda ishlayotgan pedagog, u fan doktori yoki professor bo'lishidan qat'i nazar, muntazam ravishda biror-bir ilmiy ish olib borishi hamda nufuzli ilmiy jurnallarda o'z maqolalarini bosib chiqarishi shart.

Olma ayollarimiz jahon ilm-fani makonida raqobatlashishi uchun ingliz tilini mukammal bilishi bilan bir qatorda, ilmiy maqola yozishda til va uslubga doir qat'iyl talablarni ham inobatga olishi zarur. Chunonchi, bugungi kunda xalqaro ilmiy jurnallardagi u yoki bu ilmiy maqolalar nafaqat olimlar, balki boshqa soha vakillari, xususan, biznesmen, siyosatchi, diplomatlarni ham qiziqitira olishi kerak bo'ladi.

Ilm-fan talabida ilmiy tadqiqot olib borish usullari bilan bog'liq yana bir masala bor. Ma'lumki, aniq yoki tabiiy fanlar izlanuvchilari o'z ilmiy xulosalarini turli kuzatuvlar, tajriba eksperimentlar, laboratoriya ishlari asosida ishlab chiqadi.

Gumanitar-ijtimoiy fanlarda tadqiqotlar olib borish uslubiyati tabiiy fanlarnikidan farq qiladi. Bunda o'tkazilgan tadqiqot natijalari aniq va chuqur tahlillarga asoslanishi va o'ta yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Bu kabi masalalar zamonamiz olimlari oldiga qo'shimcha vazifalar qo'yimoqda.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga to'xtalib o'tish joiz. So'nggi yillarda opa-singillarimizning oila va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini kafolatlash, oila institutini himoya qilishga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Mamlakatimizda qabul qilingan ko'plab qonunlar, Farmon va qarorlar ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Xususan, 2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida, boshqa joylarda tazyiqlar va zo'rvonlikning barcha shakllardan himoya qilish hamda erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlarni ta'minlash, jinsi bo'yicha kamситilishining va tengsizligining oldini olish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, "Fuqarolarning reprodktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mehnat kodeksiga xotin-qizlarni har qanday kamситish va ta'qiblardan himoya qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Umuman aytgandagi, ayol qadri — bebaho. Uni qanchalik yuqoriga ko'tarishga erishsak, milliy g'ururimiz, ma'naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta'minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahonda ko'z-ko'z qiluvchi farzandlarimiz soni ortib borishi tabiiy. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo'lishi ayni haqiqatdir. Shu bois jamiyatning og'ir yukini dadil ko'tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch — opa-singillarimiz ham ekanini, ular esa, o'z navbatida, oila sha'ni, mahalla vijdoni, yurt timsoli bo'lmo'gi lozimligini unutmasligimiz kerak.

Gulruh AGZAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

FAOL, IZLANUVCHAN XOTIN-QIZLAR —
JAMIYATNING MUSTAHKAM TAYANCHI

So'nggi yillarda mamlakatimizda opa-singillarimizga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor tufayli xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ularning jamiyatdagi rolini oshirish, biznes va ilm-fandagi ishtirokini kengaytirish muhim vazifalardan etib belgilandi.

Mushohada

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Taraqqiyot maqsadlari yo'lida fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risidagi rezolyutsiyada 11-fevral — Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni, deb e'lon qilingan.

Shu bois har yili mazkur sanada ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro tadbirlar o'tkaziladi.

Mamlakatimizda ham bu borada muhim chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Chunonchi, Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhasida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlanib, har yili "Olima ayol" tanlovlari o'tkazish belgilangan.

Tashabbuskor olim ayollarning ilmiy loyihalar tanlovi aynan xotin-qizlarning ilm-fandagi o'rinni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, uning natijalariga ko'ra, hozirgi kunda jami 8 mlrd. 467,5 mln. so'mlik 16 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Shu o'rinda raqam va tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak YUNESKO tadqiqotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab



ayollarning fandangil ulushi taxminan 39 foizni tashkil qiladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich deyarli 39 foizga yetgani q u v o n a r l i,

albatta. Jumladan, Fanlar akademiyasi tizimida ishlayotgan 4 ming 760 nafar xizmatdagi xotin-qizlar, ya'ni 1 ming 905 nafarini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Yurtimizda ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul 2 ming 146 nafar tadqiqotchidan 695 nafari ham ayollardir. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida magistraturada o'qiyotgan barcha qizlarning shartnoma pullarini to'liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 mlrd. so'm mablag' yo'naltiriladi. Doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston xotin-qizlarining 7 nafari akademik, 271 nafari fan doktori (DSc), 1 ming 411 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohibalari sanaladi.

Faxr bilan aytish kerakki, o'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida, ayniqsa, faol izlanmoqdalar. Ta'lim, sog'liqni saqlash,

ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida ham xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rin tutadi.



“MUALLIM QULLUG'IG'A XAT BERURMEN...”

1 Ulug' bobokalonimiz bir maktublarida “Ummid ila keldim, vale armon bila bordim...” deya o'kingan edi. U zoti sharifning armonlari bugungi ma'naviy islohotlarimiz timsolida ro'yogba chiqayotir.

Nafaqat o'zbek, balki umumturkiy adabiyotning buyuk namoyandasi bo'lgan Alisher Navoiy o'z davrida dunyo xalqlari do'stligini tarannum etgan. Ayniqsa, turkiy xalqlar birdamligi uchun shaxsan o'zi ibratli faoliyat ko'rsatgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildlik asarlar majmuasining nashr etilishi bugungi kunda Alisher Navoiy bobomizning asriy orzu-umidlari amalga oshirilayotganining yuqori isbotidir.

Majmuaga umumturkiy adabiyot namunalarini, shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya mamlakatlari yozma adabiyoti namunalarini kiritildi. Ana shu muhtasham 100 jildlikning oltinchi jildi Alisher Navoiy hazratlarining asarlaridan tarkib topgan.

Majmua nafaqat Markaziy Osiyo, balki turkiy tilli davlatlar orasida amalga oshirilayotgan birinchi katta adabiy loyiha, O'zbekistonning qardosh adabiyotlarga nisbatan ehtiromi ramzi hisoblanadi. Takror-takror aytilgan bo'lsa-da, yana bir karra aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy bobomizning o'zlari:

*Olibmen taxti farmonimga oson,
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez,
Ki qilmishdur nayi kilkim shakarrez,
deb yozganidek, bugun jahon hamjamiyati*

o'zining O'zbekistonga bo'lgan hurmatini Alisher Navoiy siymosiga bo'lgan ehtirom bilan xalqimizga izhor etayotir.

Davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi davomida iqtisodiy hamkorlik bilan birga madaniy va adabiy aloqalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tashrifdan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan kuni kecha Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun janoblarini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida qabul qildik. O'zbekiston — Xitoy adabiy hamkorligi xususida so'z borgan ushbu uchrashuvda Alisher Navoiy bobomiz dostonlarida Xitoy — Chin mamlakati va xitoy xalqiga ehtirom tarannum etilgani ta'kidlandi. Ulug' shoiming “Farhod va Shirin” dostonining bosh qahramoni Farhod — Chin hoqonining o'g'li, “Saddi Iskandariy” dostonida esa Chin mamlakatining Qirvon navohisi aholisini ya'juj-ma'jujlar zulmidan asrash uchun tarkibi mis, qalay, rux, temir hamda toshlardan iborat mustahkam istehkom qurdirilgani hikoya qilinadi.

O'z navbatida, ulug' shoir tarannum etgan Xitoyda bugun Alisher Navoiy asarlari keng o'rganilmoqda. Shanxay Fanlar akademiyasi huzuridagi adabiyot va san'at ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari U Gochjan va Pan Sinlin Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini xitoy tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan.

“Navodir un-nihoya” devonida maktab, muallim va talabalar tarbiyasi haqida, odobli hamda xulq-axloqi yuksak o'quvchilar xususida shunday misralar ifodalanadi:

*Qachon maktabqa ul mohi muaddab
Borur, o'z'din borurlar ahli maktab.
Bo'lur lavhi zabarjad ahli hayron,
Chu olur ilgiga lavhi muzahhab.
Degach abjad, boshig'a evrilurlar
Qamar birla quyosh, ya'ni jadu ab.
Nechukkim, maktab affoli xurushi,
G'amidin xalq aro faryodu yo Rab.
Muallim qullug'ig'a xat berurmen,
Gar ozod o'lsa ul sarvi shakarlab...*

“Farhod va Shirin” dostonida farzand tarbiyasi inson kamoloti va jamiyat farovonligi asosidir, degan g'oya ilgari suriladi. Aynan mana shu ezu niyatlar bugun Prezidentimiz olib borayotgan islohotlar mohiyatiga naqadar hamohang. Dostonida Farhodning ilm olishi uchun jahondagi eng zo'r olimlar uning ta'lim-tarbiyasiga jalb etilishi tasvirlanadi:

*O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,
Qolib yodida sahfa-sahfa bori.*

*...Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.*

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlagan orzu-niyatlarni bugungi kunga solishtirib ko'raylik. Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda yoshlar tarbiyasiga nihoyatda katta e'tibor berilib, Prezident maktablari, ijod maktablari bunyod etilayotganini, chet ellardan eng mohir mutaxassis olimlar O'zbekistonda dars o'tishga jalb qilinayotgani, jahonning eng mashhur oliy o'quv yurtlari filiallarining ochilishi, iste'dodli farzandlarimizning chet ellarga ta'lim olishga jo'natilayotgani — Alisher Navoiy dostonida Farhodning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan e'tibordan ziyod bo'lsa ziyodki, lekin kam emas! Aynan “Farhod va Shirin” dostoni xotima

qismida shahzoda Shohg'arib Mirzo madh etiladi, ayni paytda ulug' shoir shahzodaga, shahzoda timsolida bugungi avlodlarga ham ta'lim va tarbiya olish haqida, shuningdek, ta'lim beruvchi muallimlar, olimlar, murabbiylar mehnatining naqadar sharaflari va ulug' ekani haqida so'z yuritadi.

*Sening zotingg'adur bu so'z furug'i,
Kichik yoshdin ulug'larning ulug'i.
...Quyoshliq istasang, kasbi kamol et,
Kamol ar kasb etarsen, bemaol et.
Kishi ta'limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli o'limda xijolat.
...Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.
Hadis o'lmish nabiyydin bo'yla hodis
Ki, olim keldi payg'ambarg'a voris.
...Birovkim ilm ila bo'ldi barumand,
Angakim voris o'ldi — bo'ldi farzand.
Erursan shoh — agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen — shohsen sen.
...Skandar topti chun ilmu hunarni,
Ne yanglig' oldi ko'rgil bahrui barni.*

Prezidentimiz xalqimizga, ilm ahli va ziyolilarga, ayniqsa, yoshlarga murojaat qilib: “Ta'lim, ta'lim, ta'lim”, “Muallim, muallim, muallim” deya kuyib-yonib aytayotgan so'zlarning mohiyatida aynan Navoiy bobomiz o'z asarlarida yozganidek, ilmu hunarni egallagan yoshlar jahonni, “bahru barni”, ya'ni yerni ham, osmonni ham, ummonlarni ham zabt eta oladi, degan sharqona, milliy va umumbashariy ezu g'oyalar mujassam.

**Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi.**



E'tirof

SHANXAY SHAHRIDA MIR ALISHER NAVOIY SIYMOSIGA EHTIROM KO'RSATILDI

Atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi arafasida g'azal mulki sultonining Shanxay shahridagi haykali poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirida mamlakatimizning Shanxay shahridagi Bosh konsulligi xodimlari va mazkur shaharda ta'lim olayotgan vatandoshlar qatnashdi.

Alisher Navoiy haykali Xitoyning eng nufuzli ta'lim muassasalaridan biri — Shanxay universiteti hududida 2017-yilda qad rostlagan. Ushbu yodgorlik bugungi kunda nafaqat mazkur oliygo'ra talabalari uchun, balki xorijlik mehmonlar, jumladan, Shanxay shahriga tashrif buyurgan har bir vatandoshimiz uchun

sevimli manzilga aylangan. Xususan, bundan bir necha kun avval Toshkent va Shanxay shaharlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlar doirasida bu yurtga kelgan bir qator madaniyat, san'at arboblari ushbu universitetda bo'lib, Alisher Navoiy xotirasiga ehtirom ko'rsatdi.

**Muhammad PRIMOV,
Shanxay universiteti magistratura bosqichi talabasi:**

— Har yili 9-fevral sanasi ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy tavallud kuni sifatida keng nishonlanadi. U g'azal mulkining sultoni hamda o'zbek tilining asoschisi sifatida butun dunyoda tan olinadi va e'zozlanadi.

Bugun biz Shanxay universiteti hududida joylashgan Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish va uning xotirasiga hurmat bajo keltirish uchun to'plandik. Ushbu ulug' siymo xotirasiga bag'ishlangan haykalning aynan biz tahsil olayotgan oliy o'quv yurtida joylashgani men kabi barcha o'zbekistonliklarga faxr tuyg'usini bag'ishlaydi.

**Valeriya PAK,
Shanxay universitetining 1-bosqich talabasi:**

— Alisher Navoiy ko'plab devonlar, ilmiy asarlar va risolalar yaratish orqali jahon adabiyoti va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan. Va ayni chog'da, uning ulkan ilmiy-adabiy merosi hozirgi kunga qadar xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shib kelmoqda.

Shanxay universiteti hududida qad rostlab turgan ushbu mahobatli yodgorlikni ulug' mutafakkirning insoniyat taraqqiyoti, jahon madaniyati va xalqlar do'stligini mustahkamlashga qo'shgan ulkan tarixiy hissasi uchun ramziy minnatdorlik ifodasi, deb bilaman.

“Dunyo” AA.
Shanxay



Tadbir

ULUG' MUTAFAKKIRNING YAPONIYALIK MUXLISI

Navoiy shahrida ulug' mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi munosabati bilan Respublika Madaniy meros agentligi tomonidan “Navoiy va tabiat bilan muloqot” deb nomlangan badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Tokiodagi Alisher Navoiy haykali tashabbuskori bo'lgan Daysaku Ikeda xotirasiga bag'ishlangan ushbu tadbir avvalida ishtirokchilar D. Ikedaning yurtimiz tabiati, xalqimiz madaniy merosiga bag'ishlangan fotoalbomi ko'rgazmasi bilan tanishdi.


— Daysaku Ikeda O'zbekiston — Yaponiya arxeologik tadqiqotlariga asos solgan kishi hamdir, — deydi Respublika Madaniy meros agentligi direktori Tursunali Qo'ziyev. — U o'tgan asrning 80-yillari oxirlarida katta arxeologik ekspeditsiya yuborib, “O'zbekiston janubi qadimiyotlari” katta albomini nashr ettirgan edi. Uning tashabbusi bilan O'zbekiston xalq rassomi Ravshan Mirtojiev muallifligida Alisher Navoiy haykali yaratilib, 2004-yilda Tokioning Soka universiteti hududida qad rostladi. Yigirma yildirki, ushbu haykal poyida sana munosabati bilan yapon va o'zbek tillarida shoir g'azallari yangrab, navoiyxonlik tadbirlari o'tkaziladi.

Tadbir yakunida Daysaku Ikedaning hayoti hamda faoliyatiga bag'ishlangan videolavha ham namoyish etildi.

Temur ESHBOYEV
 (“Xalq so'zi”).

Kitob javoningizga

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy — mumtoz adabiyotimiz asoschisi. Uning har bir asari, ayniqsa, besh dostonidan iborat “Xamsa”si ulug' shoirning zavol bilmas xazinasida javohirlar shodasi kabi yog'du taratib turadi.



JAVOHIRLAR SHODASI

Prezidentimizning 2020-yil 19-oktabrdagi qaroriga muvofiq, yurtimizda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligi keng nishonlandi. Mazkur qarorda ko'plab vazifalar qatori Alisher Navoiyning ijodiy merosini ommabop, sodda va tushunarli tarzda xalqqa yetkazish vazifasi ham belgilandi. Bu borada olim va

tadqiqotchilar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Shunday ezu ishlarining davomi sifatida buyuk shoir ijodining qalbi bo'lmish “Xamsa” asari qayta nashr etildi. Mazkur nashrning avvalgilardan asosiy farqi shundaki, unda har bayt nasriy bayoni bilan bir joyda keltirilgan. Bu qulaylik bugungi kitobxonga mumtoz

she'riyatning mahobatli qasrlariga kirish uchun kalit vazifasini ham o'taydi.

Mazkur kitob yosh avlodning ko'nglida ezuqlik, diyonat, ma'rifat va muhabbat kabi ezu tuyg'ularning barqaror hamda bardavom bo'lishiga ko'mak beradi, deya ishonamiz.

“Xalq so'zi”.

So'z saroyining xazinaboni

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijodi, ijtimoiy faoliyati bashariyat ma'naviyatiga, el-yurtga xizmat qilishning betakror namunasi, desak, adashmaymiz. Zotan, u o'zining butun umrini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligi va farovonligini ta'minlashga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishlagan Vatanning fidoyi farzandi bo'lgan.

To'g'ri, tarixda buyuk insonlar ko'p o'tgan. Ammo Alisher Navoiydek so'zi orqali inson qalbiga hikmat yuqtirilgan, ruhiga donishmandlik chirog'ini yonga olganlari juda sanoqli. Buyuk shoirning har bir misra, baytini o'qib, olam-olam ma'no topamiz, beqiyos zakovatidan hayratga tushamiz.

Xorijlik navoiyshunos olimlar, adabiyotshunos va shoirlarning quyidagi fikr-mulohazalari shu haqda.

Mulohaza

**Azizulloh ORAL,
adabiyotshunos,
navoiyshunos olim (AQSH):**

— Vatan, millat, istiqbol uchun qaysi nasl va avlod qanday ezu ish, qanday ulkan yumushlarni amalga oshirmasin, ajdodlar ruhi ularni, albatta, qo'llab-quvvatlab turadi. Moziy va zamon, ajdod va avlod orasidagi sirli, o'sha xosiyatli robita vorisiylikdir.

Badiiy ijoddagi an'ana va izdoshlikda ham shunday

bag'lanish, adabiyot istiqboliga xizmat qiladigan vorisiylik mavjud. Ustoz san'atkorlar tajribasini davom ettirgan iste'dod borki, ularga suyanadi. Ilk odimlaridanoq Alisher Navoiy bu haqiqatni chuqur anglagan, his qilgan. Demak, adabiy an'analarni yangilash va boyitish ehtiyoji, birinchi galda, ilhom va shijoat bilan to'lib-toshgan kuchli shaxsiyatning adabiyotga kirib kelishiga yo'l ochgan. Shu ma'noda, hazrat Navoiyning shaxsidan qancha ibrat olsak, shuncha oz. Zero, muazzam bir tog' bag'ridagi

boylik, bepoyon dengiz qaridagi duru javohirni to'raligacha qo'lga kiritib bo'lmaganidek, Alisher Navoiyni daho san'atkor maqomiga ko'targan oliy xislat, fazilat, ma'naviy sifatlarining barchasini oxirigacha anglab, tavsiflab bo'lmaydi.

Buyuk mutafakkir butun hayotini insonning saodati, xalqning tinchligi yo'lida o'tkazdi. Alisher Navoiy imyon, insof, diyonat, saxovat, muruvvat kabi umuminsoniy qadriyatlarga hamisha amal qilib yashagan va ularni e'zozlagan. Bugun esa bu xayrli ishni ulkan ijodiy merosi serhikmat asarlari, yetuk she'rleri va ulardagi g'oyalar bajarib turibdi va turajakdir.

**Shahriyor Del GERONIY,
shoir va jurnalist
(Ozarbayjon):**

— Yaqinda Alisher Navoiy asarlari, g'azallari, jumladan, “Xamsa” asari to'liq ozarbayjon tiliga o'girilganidan xabar topdim. Ustoz tarjimon Romiz Asqar xizmati bilan endi buyuk mutafakkirning behad go'zal ash'orlari, ko'pchilik hamisha o'qishga mushotoq bo'lgan besh ganjdan iborat “Xamsa”sini ozarbayjonliklar o'z tilida bemaol mutolaa qilishi mumkin.

Rahmatjon BOBOJONOV
 (“Xalq so'zi”) yozib oldi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi**

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'iset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhib S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05

1 2 3 4 5 6